

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjaeva

2025-yil 30-iyun

**HUQUQ SOHALARI II
(jinoyat huquqi)
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111100 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Fan/modul kodi Hs15609		O'quv yili 2025/2026	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jinoyat huquqi	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga jinoyat huquqi fanining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni, jinoyat huquqi fanidan jinoyat huquqlari, uning paydo bo'lishi va himoya qilinishi, jinoyat huquqito'g'risidagi xalqaro hujjatlar kabi masalalarni bilishi va ulardan foydalana olishi, talabalarda jinoyat munosabatlari, funktsiyalari, mexanizmlari, haqida atroflicha bilimlarni shakllantirish. Fanning asosiy vazifalari: - jinoyat huquqi bilan bog'liq asosiy tushuncha va tamoyillar asosida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning qonunga itoatkorlik tuyg'ularini mustahkamlash, vatanga sadoqat va xalqqa hurmat ruhini oshirish, yoshlarning halollik va ezgulikka hamda ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida birlashtirish va safarbar etish, talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va zaruriy bilimga ega qilish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi Fanning asosiy manbalari: Har bir fan, huquq sohasi o'z manbalariga ega bo'lib, ushbu manbalar asosida rivojlanganidek, mamlakatning oliy vakillik organi xamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar jinoyat huquqining manbalari bo'lib hisoblanadi. Jinoyat huquqining manbalari deganda jinoyatga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoida talablardan iborat bo'lgan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda xizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar tushuniladi Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Yer huquqi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Manchester universiteti (Buyuk Britaniya)ning Jinoyat huquqi fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 32-o'rinni egallagan bo'lib, huquqshunoslik sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Manchester universitetining Criminology with International Study kursida yuridik nazariya bilan bir				

qatorda, zamonaviy jinoiy huquqiy munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro huquqiy me'yorlar, ayniqsa, Britaniya umumiy huquqi (Common Law) tizimidagi jinoyat va boshqaruv prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar huquqiy holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda huquqiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Jinoyat huquqining tushunchasi , predmeti, vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi predmeti, tushunchasi va ahamiyati, vazifalari. Boshqa huquqiy fanlar bilan aloqadorligi. Jinoyat huquqining tizimi. Jinoyat qonuni umumiy va maxsus qismi, ularning ilmiy ahamiyati. Jinoyat qonunining rivojlanishi prinsiplari va ularning mohiyati.

2-mavzu. Jinoyat qonuni.

Jinoyat qonun tushunchasi, O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuni, Jinoyat Kodeksning tizimi, JKning umumiy va maxsus qismining o'zaro munosabati va birligi. Jinoyat kodeks maxsus qismining huquqiy normalari va moddalarning tuzilishi. Jinoyat qonunining huquq bo'yicha amal qilishi. JKodeksning O'zbekiston xududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi, O'zbekiston xududi tushunchasi. Qonunning O'zbekiston xududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tadbiq etilishi. Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilinishi.

3-mavzu. Jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik va uning asoslari.

Jinoiy javobgarlik tushunchasi. Jinoyat tarkibi tushunchasi va huquqiy mazmuni. Jinoyat tarkibining elementlari va alomatlari. Jinoyat va jinoyat tushunchasi. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqi. Jinoyatni aks ettiruvchi usullar va ko'rsatkichlar. Xozirgi zamonda O'zbekistonda jinoyatchilik sabablari va ularni sodir qilishning shart-sharoitlari.

4-mavzu. Jinoyat tarkibi

Jinoyat tarkibining tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati, jinoyat tarkibining alomatlari va belgilari. Jinoyat turlarining tarkibi. Jinoyat ob'ekti tushunchasi. Ijtimoiy xafvli qilmishning darajasi va xususiyatini Aniqlashda jinoyat ob'ektining ahamiyati, jinoyat ob'ekti turlari. Umumiy ob'ekt tushunchasi. Maxsus ob'ekt tushunchasi. Jinoyat Kodeksining maxsus qismi tizimini shakllantirishda maxsus ob'ektining ahamiyati. Jinoyatning bevosita ob'ekti. Bevosita ob'ektining asosiy va qo'shimcha belgilari. Jinoyat predmeti tushunchasi va jabrlanuvchining huquqiy xolati. Aniq jinoyat tarkibida bevosita ob'ektning o'rni,

5-mavzu. Jinoyatning sub'ektiv tushunchasi

Jinoyatning sub'ektiv tushunchasi va uning yuridik alomatlari. Jinoyatning sub'ektiv tomoni tushunchasi va belgilari. Ayb tushunchasi va shakllari. Jinoyatni kvalifikatsiyasida ayb shakllarning ahamiyati Qasddan sodir etilgan jinoyatning shakli va turlari.

6-mavzu. Qasddan sodir etilgan jinoyatning bosqichlari

Qasddan sodir etilgan jinoyat tushunchasi va turlari. Jinoyatni tamom bo'lgan deb topilish. Formal va moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoyatning tamom bo'lgan vaqti. Jinoyatga tayyorgalik ko'rish tushunchasi. Tayyorgalik ko'rish tushunchasi. Tayyorgalik ko'rish qasdining oshkor bo'lishidan farqi. Jinoyat sodir etishga qasd qilish tushunchasi va belgilari. Qasdning turlari. Qasdning jinoyatga tayyorgalik ko'rishdan va tamom bo'lmagan jinoyatdan farqi, Jinoyatga tayyorgalik ko'rish va jinoyat sodir etishga qasd qilganlik uchun jinoiy javobgarlik.

7-mavzu. Jinoyatda ishtirokchilik

Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, uning sub'ektiv va ob'ektiv belgilari. Jinoyat ishtirokchilarning turlari; bajaruvchi, tashkilochi, dalaolatchi, yordamchi.

8-mavzu. Ishtirokchilik

Ishtirokchilikning shakllari: oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan gurux, jinoiy uyushma. Jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik doirasi va asoslari. Eksess bajaruvchi. Maxsus sub'ekt, jinoyatda ishtirokchi sifatida. Jinoyat ishtirokchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytishi. Jinoyatga daxldorlik tushunchasi va turlari. Jinoyatga daxldorlikning ishtirokchilikdan farqi.

9-mavzu. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi xolatlar.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi xolatlar tushunchasi va turlari. Kam ahamiyatli qilmishlar. Mudofaa chegarasidan chetga chiqish. Oxirgi zarurat. Oxirgi zaruratning huquqiy shartlari. Zaruriy mudofaa. Zaruriy mudofaning huquqiy shartlari. Zaruriy ijtimoiy xavli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish. Kasb yoki boshqa xo'jalik faoliyatga bog'liq asosli tavakkulchilik.

10-mavzu. Jazo tushunchasi, tizim, turlari, maqsadlari.

Jazo tushunchasining belgilari. Jazoning boshqa huquqiy ta'sir choralaridan farqi, jinoiy jazolarning maqsadi va vazifalari. Jazoning samaradorligi tushunchasi. Jazoning samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik tomonidan ko'riladigan choralar. Jazo tizimi va uning turlari. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksidagi jazo tizimi va uning huquqiy ahamiyati.

11-mavzu. Voyaga yetmaganlar javobgarligi

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan asosiy jazolar va ularning kattalarga tayinlaydigan jinoiy jazolardan farqi. asosiy jazo turlari. Jazo tayinlash. Javobgarlik tushunchasi va turlari.

12-mavzu. Jinoyat huquqi maxsus qismi tushunchasi, uning vazifasi va tizimi

Jinoyat huquqi maxsus qismi tushunchasi va uning vazifalari. Umumiy va maxsus qismlarning o'zaro bog'liqligi. O'zbekiston respublikasi jinoyat qonunlarini takomilashtirshining asosiy yo'nalishlari. Jinoyat huquqi maxsus qismining asosiy prinsiplari, ularning mohiyati, va mustaxkamlanishi, O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi maxsus qismi, tizimi. Jinoyat huquqi maxsus qismi normalarining mohiyati, mazmuni. Ularni ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan yoritilishi. Jinoyat huquqi maxsus qismi normalarining to'g'ri tushunish, qo'llanishida sud amaliyotining o'rganishning ahamiyati.

13-mavzu. Shaxsga qarshi jinoyatlar

Shaxsga qarshi, xayotga qarshi, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, xayot va sog'liq uchun qarshi jinoyatlar, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr qimmatiga, qarshi jinoyatlar, tinchlik va insoniyat xavfsizililiga qarshi jinoyatlar, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va turlari.

14-Mavzu. Jinoyat huquqiga oid muhim huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy masalalarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va sharhlash

Asosiy jinoyat turlari va himoya vositalari (mudofaa) bo'yicha bilim va tushunchani namoyon etish qobiliyati. Jinoyat huquqini shakllantiruvchi qadriyatlar va prinsiplar haqida tanqidiy fikrlash qobiliyati. Jinoyat huquqida sud ijodining roli va asoslarini tushunish qobiliyati. Jinoyat huquqiga oid muhim huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy masalalarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va sharhlash qobiliyati. "Kitoblardagi jinoyat huquqi"ni "amaliyotdagi jinoyat huquqi" bilan bog'lay olish qobiliyati.

15-Mavzu. Jinoyat huquqini asosli va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati.

Jinoyat huquqining jamiyatdagi o'rnini va unga munosabat bildirish bo'yicha tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlarni baholash qobiliyati. Mustaqil ravishda kutubxona va elektron resurslar asosida tadqiqot olib borish qobiliyati. Fikr va dalillarni ravon va mantiqiy shaklda bayon qilish qobiliyati. Dalillarni va tahlilni tuzilmali tarzda ifodalash qobiliyati. Guruhda ishlash qobiliyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti va vazifalari
2. Jinoyat va javobgarlik asoslari

3. Jinoyat tarkibi, uning ob'ekti va ob'ektiv tomoni
4. Jinoyat tarkibining sub'ekti va sub'ektiv tomoni
5. Jinoiy jazolar
6. Jazodan ozod qilish asoslari
7. Jinoyatda ishtirokchilik
8. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
9. Javobgarlikdan ozod qilish turlari
10. Voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazo
11. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari
12. Liberallashtirish va shaxsga qarshi jinoyatlar
13. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar
14. Ekologiya, boshqaruv va odil sudlovga qarshi jinoyatlar
15. Jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi hamda harbiy sohadagi jinoyatlar

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jinoyat huquqining tizimi
2. Jinoyat tarkibining tushunchasi
3. Jinoyat ob'ekti tushunchasi
4. Jinoyat predmeti tushunchasi
5. Ayb tushunchasi va shakllari
6. Jazodan ozod qilishning turlari
7. Amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish
8. Ishtirokchilikning shakllari
9. Jinoyat ishtirokchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytishi
10. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi va turlari
11. Oxirgi zarurat
12. Zaruriy mudofaa
13. Kasalik yoki Jinoyat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli jazodan ozod qilish
14. Amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish
15. Oddiy ishtirokchilik
16. Maxsus sub'ekt
17. Shartli ozod qilish
18. Jinoyat sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati
19. Voyaga yetmagan shaxslar sodir etgan jinoyatlar uchun qo'llaniladigan jazolar tizimi
20. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari va ularni tayinlash
21. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatlarini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish

	22.Liberallashtirishning huquqiy asoslari 23.Xayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlar 24.Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar 25.Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar 26.Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: - esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; - dokladlar tayyorlash; - kurs ishi yozish; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhiiy o'quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; - infografika tuzish; - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish; - multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: Turli toifadagi jinoyat turlarining huquqiy rejimini qiyosiy tahlil qilish shaklida kollokvium 27.1) jinoyat qonuni; 2) jazo turlari; 3) Xayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlar 4) Oddiy ishtirokchilik 6) Jinoyat predmeti tushunchas; 2-modulning ikkinchi yarmida, oxirgi seminarlardan birida taqdimotlar shaklida amalga oshiriladi. • Kollokvium o'tkaziladigan sana to'g'risida talabalar modul boshida, birinchi yoki ikkinchi dars davomida ma'lum qilinadi. Kollokviumga tayyorgarlik ko'rishda guruh etti kichik guruhga (jinoyat turlari soniga ko'ra) bo'linadi. • Kollokviumning maqsadi o'qituvchi tomonidan ilgari taklif qilingan sxema (savollar ro'yxati - mezon) va qo'shimcha ravishda bir guruh talabalar tomonidan taqdim etilgan taqdimot shaklida turli toifadagi Jinoyatlarning huquqiy rejimlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. materiallar (matnli ma'lumotlar shaklida). Taqdimot taqdim etilgandan so'ng, har bir kichik

	guruh kichik guruhlarning boshqa a’zolari va o’qituvchining savollari bilan muhokama qilinadi. Mazmun jihatidan kollokvium Jinoiy huquqi kursining alohida qismini qamrab oladi. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarga har qanday manbalardan foydalanishga ruxsat beriladi. Sud hujjatlariga havolalar majburiydir (yerga oid qonun hujjatlarining bajarilishini tasvirlash uchun) shakllantirish vazifalarini amalda qo’llay bilish ko’niklariga ega bo’lishi lozim. (malaka)
	VII. Mavzu yuzasidan savollar: - Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari qanday farqlanadi? - Jinoyat huquqida qaysi omillar shaxsning javobgarligini og’irlashtiradi? - Himoya zarurati (o’zini oqlash) jinoyat huquqida qanday baholanadi? - Jinoyat sodir etish bosqichlari (tayyorgarlik, urinish, tugallangan jinoyat) o’rtasidagi farqlar nimalardan iborat? - Sud precedenti jinoyat huquqi manbai sifatida qanday o’rin tutadi?
4.	VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: - guruhlarda ishlash; - amaliy mashg’ulotlar - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoat ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. - ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: - Ben McFarlane, Nicholas Hopkins. Land Law: Text, Cases, and Materials. OUP Oxford, 2022 - Rustamboev M.H. va boshq. Yer huquqi..Darslik – T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2022. – 237 - Земельное право республики Узбекистан. Учебник. Под. ред. М.Х. Рустамбаева. хуқуқи.Т.:ТДЮИ, 2021.-215 стр. - Nigmatov A.. Yer huquqi. O’quv qo’llanma.– Toshkent.: “Islom Universiteti”, 2021.– 191b. - Нигматов А.. Земельное право.Учебное пособие – Т.: “Ислом Университети”, 2021. – 189 б. - Uzoqova G.Sh. Aholi punkti yerlaridan foydalanish huquqi.T.:TDYuI, 2006.-117 b.

	7. Mirzaabdullaeva M., A.Muqumov, Z.Xafizova. Yer huquqi, O'quv qo'llanma.-T.:TIMI,2016.-196 b 8. Земельное право: Учебник / С.А. Боголюбов, Э.А. Галиновская; Учебник./Под ред. С.А. Боголюбова – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004.-400 стр. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi , O'zbekiston,T.:1998 2. O'zbekiston Respublikasining qonun osti hujjatlari. 3. Aholi uchun yuridik ma'lumotnoma, 1-6-sonlar. -T.: Adolat, 1994-1995. 4. Davlat va huquq nazariyasi / Boboev X..B., Islo- mov Z.I.,CHoriev U. -T.: Iqtisod va huquq dunyosi, 2000 y. 5. Yer munosabatlarini tartibga solishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami —T.: Yer resurslari davlat qo'mitasi, 2000 y. 6. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari.-T.: Adolat, 1999. 7. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998. 8. Ковда В. А. Проблема почвенного покрова и биосфера планета. - Пушкина, 1989. Kodekslar: 1. "Jinoyat kodeksi", 1994 yil 22 sentabr.-T.: Adolat, 1998. 2. "Ma'muriy javobg'arlik to'g'risidag'i kodeks", 1994 yil 22 sentyabr.-T.: Adolat, 1998. 3. "Mehnat kodeksi", 1995 yil 21 dekabr.-T.: Adolat, 1999. 4. "Fuqarolik kodeksi", 1995 yil 21 dekabr va 1996 yil 29 avgust.-T.: Adolat, 1996. 5. "Soliq kodeksi", 1997 yil 24 aprel -T.: Adolat. 1999. 6. "Er kodeksi", 1998 yil 30 aprel.-T.: Adolat, 1999. 7. "Uy-joy kodeksi".-T.: Adolat, 1999. Axborot manbalari: 1. http://www.lex.uz 2. http://www.senat.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.mtdp.uz 7. http://www.parliament.uz 8. http://www.ziynet.uz 9.https://www.manchester.ac.uk/study/undergraduate/courses/2025/11160/ba-criminology-with-international-study/course-details/#content-main
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: J.A'zamov – Qo'qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası o'qituvchisi (PhD) N.Siddiqov – Qo'qon DU, Milliy g'oya va huquq kafedrası dotsenti, yu.f.n.

9.	Taqrizchilar: T.Madumarov – ADU, Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani, yu.f.dok., professor
----	--